

NE'MATULLOHIYA TARIQATI

Hafizov Siyovash Oqiljon o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va germeneytikasi kafedrası 2-bosqich magistranti

siyovashhafizov@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.13925856>

Annatsiya. *“Ne'matullohiya” tasavvuf tariqatlaridan biri bo'lib, dastlab islom dinining sunniy mazhabiga e'tiqod qiluvchi aholisi orasida keng tarqalib, keyinchalik unda shialikka og'ish holati kuzatilgan. Ushbu ilmiy tadqiqotda mazkur tariqat to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan, paydo bo'lish shart-sharoitlari, tarixi, qutblari, asoschisi, qonun-qoidalari hamda tariqatda yuz bergan bo'linish holatlari turli tildagi manbalar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ne'matullohiya, Ne'matulloh Valiy, vajd, ijti hod, Safialishoh.*

NEMATOLLAHI SECT

Abstract. *“Nematollahi” is one of the Sufism sects, which at first spread widely among the people who believe in the Sunni school of Islam, and later a deviation to Shiism was observed. In this scientific study, information about this sect, including the conditions of its emergence, history, poles, founder, laws, and cases of division in the sect, were analyzed based on sources in different languages.*

Key words: *nematollahi, Nematollahi Wali, wajd, ijti had, Safialishah*

СЕКТА «НЕМАТУЛЛАХИЯ»

Аннотация: *«Нематуллахийя» – одна из суфийских сект, которая сначала широко распространилась среди людей, исповедующих суннитскую школу ислама, а позднее наблюдался уклон в шиизм. В данном научном исследовании на основе источников на разных языках были проанализированы сведения об этой секте, включая условия ее возникновения, историю, основателя, законы и случаи разделения в секте.*

Ключевые слова: *Нематуллахия, Нематулла Вали, ваджд, иджтихад, Сафьялишах.*

Ne'matullohiya – tasavvuf tariqatlaridan biri bo'lib, hijriy VIII asrdan so'ng Shoh Ne'matulloh Valiy xizmatlari va sa'y-harakatlari natijasida uning nomi bilan atalib, keng tarqaladi. Ne'matullohiya hozirgi kunda ham tasavvufning mashhur tariqatlaridan biri sanaladi¹. Ne'matullohiya so'zi Shoh Ne'matulloh Valiy nomidan olingan bo'lib, uning hayot davrida Ne'matulloh Valiyga ergashuvchilarni Ne'matullohiy deb atashardi. Shuning uchun ham tariqat

¹ Murtazo Mutohharliy. Tasavvufdagi mashhur so'fiylar. 1-jild. – B. 109.

asoschisi vafot etgandan so'ng unga ergashgan so'fiylar o'zlarini ne'matullohiya tariqati davomchilari deb atay boshlashdi. Shoh Ne'matulloh Valiydan oldin tariqat yo'li mashhur so'fiylar nomi bilan masalan, Ma'ruf Karxiy zamonida ma'rufiya hamda Junayd Bag'dodiy davrida esa Bag'dodiya deb nomlangan².

Ne'matullohiya tariqati silsilasi:

- | | |
|-------------------------|---|
| 1. Ali ibn Abu Tolib | 13. Ahmad G'azzoliy |
| 2. Hasan Basriy | 14. Abulfazl Bag'dodiy |
| 3. Habib Ajamiy | 15. Abulbarokat |
| 4. Dovud Toyiy | 16. Abulsaud Andalusiy |
| 5. Ma'ruf Karxiy | 17. Abumadin |
| 6. Sari Saqatiy | 18. Abulfutuh Sa'idiy |
| 7. Junayd Bag'dodiy | 19. Najmiddin Kamol Kufiy |
| 8. Abu Ali Rudboriy | 20. Solih Barbariy |
| 9. Abu Ali Kotib | 21. Abdulloh Yofe'iy |
| 10. Abu Usmon Mag'ribiy | 22. Shoh Ne'matulloh Valiy ³ |
| 11. Abulqosim Garkoniy | |
| 12. Abu Bakr Nassoj | |

Sayyid Nuriddin "Shoh Ne'matulloh Valiy" hijriy VIII-IX asrlarning mashhur so'fiy va tariqat pirlaridan biri bo'lib, u hijriy 731-yil rabbi-ul avval oyining 14-sanasi, dushanba kuni Halab shahrida dunyoga kelgan. Yetti yil davomida Abdulloh Yofe'iy qo'lida xizmat qilib, tariqat qoidalari bilan tanishadi. U keyinchalik Hirotda Mirhusayniy Hiraviyning nevarasi bilan turmush quradi hamda bu turmushning mevasi o'laroq Ne'matulloh Valiyning yolg'iz o'g'li, otasidan keyin tariqat yo'l boshchisiga aylanadigan Burhoniddin Xalilulloh hijriy 775 yil Kirmon shahrida tavallud topadi. Shoh Ne'matulloh Valiy qarib 100 yil umr ko'rib, oxir-oqibat hijriy 832 yil (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 834-yil) rajab oyining 23-sanasi, payshanba kuni Haqqa qovushadi.

Shoh Ne'matulloh Valiy xalq xizmatida bo'lishga katta e'tibor qaratardi. U Eronning ba'zi mintaqalari va shaharlarida, jumladan, Mohon, Kirmon, Abrqu va Yazdda imorat qurish, bog'barpo etish hamda handaq qazish singari obodonlashtirish ishlarini amalga oshirgan bo'lib, ulardan ba'zilar Yazd shahrida hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Shoh Ne'matulloh Valiydan ko'plab asarlar, jumladan, she'riy to'plamlar, risolalar va sharhlar hozirgi kungacha yetib kelgan⁴.

Shoh Ne'matulloh Valiyning izdoshlari uni nazariy va amaliy ijtihodga ega kishi sifatida

² Alirizo Nurbaxsh. Ne'matullohiya tariqati maqalasi. So'fiylik jurnali 1-son. London, 1979-yil. – B. 4.

³ Javod Nurbaxsh. Tariqat ulug'lari. Yaldo qalam nashriyoti. 2004-yil. – B. 87.

⁴ Javod Nurbaxsh. Shoh Ne'matulloh Valiy hayoti va ijodi. Yaldo Qalam nashriyoti. Tehron, 2007-yil. – B. 28.

bilishgan. Ne'matulloh Valiy "Vahdat ul-vujud" masalasi haqida fikr bildirar ekan, vujudni dengizga va uni tashqi ko'rinishini aslida suv bo'lgan dengiz ustidagi to'lqin hamda pufakchalarga o'xshatadi. Shoh Ne'matulloh Valiy shunday degan: "Vujudning haqiqati bir nuqtaga o'xshaydi va uning harakati natijasida vujudga keladigan doira vujudning zohiriy ko'rinishi bo'lib, garchi tashqi ko'rinishdan mavjudga o'xshab ko'rinsada, aslida u haqiqiy mavjudlik emas. Xuddi alif va boshqa harflar singari aslida har biri nuqtadan vujudga keladi, ammo ularning mavjudligi zohiriydir.

Shoh Ne'matulloh Valiyning amaliy ijtihod belgilari quyidagicha:

1. Ne'matulloh Valiy o'z izdoshlarining biror bir faoliyat bilan shug'ullanmasligi va tarkidunyochiligiga qarshilik qilgan;
2. O'z muridlarini faqirlikning maxsus liboslarini kiyishdan qaytargan;
3. Shoh Ne'matulloh Valiy davridan so'ng uning izdoshlari ruhiyatida sayri-sulukdagi solikning shodlik, surur va xursandchilik kechinmalari o'rnini giriftorlik, g'am-anduh egallaydi;
4. Shoh Ne'matulloh Valiy tasavvufni xos kishilarga oid ilm deb bilmasdi hamda tavhid yo'lidan adashgan kishini ko'rganida, uni muhabbat bilan to'g'ri yo'l sari yetaklardi;
5. Shoh Ne'matulloh Valiy o'sha zamondagi barcha faqirlik qiyinchiliklariga qaramasdan, muhabbat bilan sayri-suluk yo'lidan davom etdi⁵.

Ne'matulloh Valiy o'z muridlariga shunday tavsiyalar qilardi: "Qalb poklash va nafsni yengish yo'lidagi eng yaxshi riyoziyat bu insonlarga shafqat va xalqqa xizmatdir". Ularga qanday qilib bir vaqtning o'zida ham Haq zikrida, ham xalq ichida bo'lishni hamda xilvat anjumanda ekanligini o'rgatdi⁶.

Ne'matullohiya tasavvuf tariqatining asosi besh narsadan iborat bo'lib, ular: zikr, fikr, hisob, muroqibat va vird⁷. Ne'matullohiya tariqatining o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iboratdir:

1. Uzatni xush ko'rmaslik va "xilvat dar anjumanni" undan afzal deb bilish;
2. Xashish va shunga o'xshash insonni o'z xatti-harakatlarini bilmas darajaga olib keladigan mahsulotlar iste'molidan tiyilish;
3. Ne'matullohiya tariqatiga ergashuvchi darvishlar albatta biror bir kasb bilan shug'ullanishlari lozim. Bu tariqatda bekorchilikdan qaytarilgan;
4. Bu tariqatga ergashuvchi so'fiylar o'zlari uchun maxsus kiyim tanlashmagan;

⁵ O'sha asar. – B. 30.

⁶ Javod Nurbaxsh. Kirmon so'filari va ulug'lari. Yaldo Qalam nashriyoti. Tehron, 2005-yil. – B. 48.

⁷ Javod Nurbaxsh. So'fiylar jannatida. Yaldo qalam nashriyoti. Tehron, 2005-yil. – B. 98.

5. Ushbu tariqat izdoshlari insonlarni qaysi din va millatga xos bo'lishlaridan qat'iy nazar ularni hurmat qilib, muhabbat ko'rsatishgan hamda ularning yashashdan asosiy maqsadlari "Xoliquллоh" Yaratganga xizmat qilishdangina iborat bo'lgan;
6. O'zlarining zikr majlislarida ko'proq qalbiy (mahfiy) zikr va muroqibat bilan mashg'ul bo'lib, jahriy zikrni kamroq qilishgan;
7. Ular tinchlik, do'stlik va tenglik tarafdori bo'lishgan⁸.

Shoh Ne'matulloh Valiy vafot etganidan so'ng uning farzandi Xalilulloh ne'matullohiya tariqati peshvoligini o'z zimmasiga oladi. Shoh Xalilulloh Erondan Do'konga ketadi va to Shoh Alirizo Do'koniy zamonigacha tariqat yo'lboshchilari Do'kondan qo'nim topishadi. Hijriy 1190-yil Sayyid Ma'sum Alirizo Do'koniy Eronga qaytadi hamda oz fursatlarda Fayzalishoh va Nuralishoh Isfahoniy, shuningdek, Mushtoqalishoh singari tasavvuf darg'alarini tarbiyalab, ne'matullohiya tasavvuf tariqatini Eronda qaytadan gullab-yashnashini ta'minlaydi⁹.

Ne'matullohiya tariqati rahnamolari Eronga qaytdganda so'ng sayri-sulukka peshvolik qilgan pirlar quyidagicha:

- | | |
|----------------------------|---|
| 1. Ma'sumalishoh | 7. Munavvaralishoh |
| 2. Nuralishoh | 8. Vafoalishoh Sheroziy |
| 3. Husaynalishoh | 9. Sodiqalishoh |
| 4. Majzubalishoh Hamadoniy | 10. Munisalishoh |
| 5. Mastalishoh | 11. Javod Nurbaxsh (Nuralishoh) ¹⁰ |
| 6. Rahmatalishoh | 12. Alirizo Nurbaxsh (Rizoshoh) |

Ne'matullohiya tasavvuf tariqati va ularning xonaqoh odobi hijriy IX asrdan boshlab vujudga kelib, jamiyatning qabul qilishi va rad etishi oralig'ida, gohida tanazzul gohida esa fitrat boshqichlarini o'tkazib, bugungi kungacha yashab kelmoqda¹¹. Ne'matullohiya tariqati peshvolaridan biri Munisalishoh taxallusi bilan tanilgan Hoji Mirzo Abdulhusayn Ne'matullohiy Shiroziy hijriy 1355-yili Tehron shahrida yog'ochdan katta xonaqoh insho etadi. U hozirgi kunda Tehronda saqlanib qolgan ne'matullohiya tasavvuf tariqati vakillarining majlislar o'tkaziladigan go'shaga aylangan¹². Eronning ikki guruh mashhur so'fiylari ya'ni go'nobodiy va safoiy shaxobchasi vakillari o'zlarini ne'matullohiya tariqatiga mansub deb bilishashi hamda o'z silsilarini ham ne'matullohiya tariqati rahnamolari bilan bog'lashadi¹³.

⁸ Javod Nurbaxsh. Tasavvuf atamaları. Ne'matullohiya xonaqosi nashriyoti. 1993-yil. – B. 165-66.

⁹ Javod Nurbaxsh. Tasavvuf ulug'lari. Yaldo Qalam nashriyoti. Tehron, 2004-yil. – B. 123.

¹⁰ O'sha asar. – B. 87.

¹¹ Muhsin Kiyoniy. Eronda xonaqohlar tarixi. Tehron. – B. 325.

¹² Alloma Jaloliddin. Sano devoni she'riy to'plami. Tehron. – B. 178.

¹³ Javod Nurbaxsh. Guliston jovid. Tehron, 1994-yil. – B. 34.

Rahmatalishoh vafot etganidan so'ng ne'matullohiya tariqatiga peshvolik qilish Munavvaralishoh zimmasiga yuklanadi. Munavvaralishohning ne'matullohiya tariqati peshvosi deb e'lon qilingani hamda Rahmatalishohdan olgan ruxsatnomasini ma'lum qilganidan so'ng mamlakat ichi va xorijdagi ne'matullohiya tariqati mashoyixlari unga bay'ad qilishadi. Rahmatalishoh Munavvaralishoh uchun ikki marta ruxsatnoma bergan edi. Rahmatalishoh birinchi ruxsatnomani hijriy 1272-yil Kirmon shahriga safar qilish asnosida, bemorligi sabab ehtiyot yuzasidan yozgan. Munavvaralishohning ikkinchi ijozanomasi hijriy 1288-yil 22-sha'bonda yozilgan¹⁴.

Ne'matullohiya tariqati shayxlaridan faqat isfahonlik Saodat Alishoh nomi bilan tanilgan Mulla Kozim Munnavaralishohni tariqat peshvosi sifatida tan olmaydi va Isfahon aholisini to'g'ri yo'lga boshlash uchun berilgan ruxsatnomasini Rahmatalishohning o'rmbosari sifatida berilgan ruxsatnoma deb hisoblab, ne'matullohiya tariqatidagi birinchi bo'linishni vujudga keltiradi¹⁵. Saodatalishohning izdoshlari fikricha, Munavvaralishohga berilgan ikkinchi ruxsatnoma soxta bo'lib, Rahmatalishohning o'g'li Mirzo Muhammad Husayn Noyib ul-Sadr tomonidan yozilgan. Munavvaralishohga ergashuvchilar Rahmatalishoh tomonidan Saodatalishohga berilgan ruxsatnomani e'tirof etishadi. Lekin ularning nazdida, bu ruxsatnoma o'rmbosarlik uchun emas, balki shayxlik uchun berilgan¹⁶.

Rahmatalishohning shogirdlaridan biri bo'lgan Saodatalishoh Munavvaralishohga ergashishdan bosh tortadi. Uning o'limidan so'ng Saodatalishoh bilan ko'rishganda unga nisbatan alohida muhabbat hosil qilgan Mulla Sulton Go'nobodiy Isfahonga kelib uning xizmatida bo'ladi. Shundan so'ng talabalarni hidoyatga boshlashni asta-sekin qo'lga olib, Go'nobodiy birodarlar jamiyatiga asos soladi¹⁷.

Rahmatalishohga ergashganlardan biri hamda Saodatalishohning ne'matullohiya tariqat yangi piri bo'lmish Munavvaralishohga qo'l bermaganidan norozi bo'lgan Mirzo Hasan Isfahoniy (Safialishoh) Yazd shahrida yashar edi. Safialishoh Munavvaralishohga qo'l berib, Saodatalishohdan yangi tariqat peshvosiga bo'ysunmaganligi uchun yuz o'giradi va uni o'zining mashhur she'rlaridan birida zindiq, johil deb nomlab, Munavvaralishohni fozil insonligini ta'kidlab o'tadi. Shayxlik maqomini Munavvaralishohdan olib, Safialishoh deb ataladi. U ikki marta tariqat peshvosining farmoyishi bilan Hindistonga safar qiladi hamda bir necha yillar davomida Yazd shahrida ne'matullohiya tasavvuf tariqati shayxi sifatida faoliyat ko'rsatadi. O'sha

¹⁴ Javod Nurbaxsh. Guliston jovid. Tehron, 1994-yil. – B. 39.

¹⁵ O'sha asar. – B. 41.

¹⁶ Sayyid Mustafo Ozmoyish. Ne'matullohiya tariqatidagi tarixiy o'zgarishlar. Haqiqat nashriyoti. Tehron. – B. 58.

¹⁷ Javod Nurbaxsh. Guliston jovid. Tehron, 1994-yil. – B. 56.

zamonlarda Koshon shahrida yashaydigan va Tehron shahri hamda atroflarida shayxlik qilish uning tasarrufida bo'lgan Abdualishoh Safialishohga ergashuvchilar to'g'risida o'zining Tehrondagi muridlari orqali xabar topadi. Shuni inobatga olgan holda, Safialishoh Tehronda o'ziga ergashuvchilarni topishi qiyin bo'lib qoladi hamda ikki shayx orasida maktublar almashinuvi yuz berib, vaziyat jiddiy tus oladi. Bu qarama-qarshilik yanada keskin tus olishi bilan Munavvaralishoh oldindan hech bir ma'lumotga ega bo'lmasdan o'zi mazkur ixtilofga barham berish maqsadida Tehron sari yo'l oladi. Afsuski, u kishi Tehronga kirishi bilan muammoli vaziyat hal bo'lishi o'rniga Safialishoh bilan Munavvaralishoh muridlari orasida ixtilof boshlanadi. Munavvaralishoh Safialishohdan ranjib, ko'ngli qolib Tehronni tark etadi. Safialishoh to umrining so'nggiga qadar o'zini ne'matullohiya tariqati darveshi deb biladi, lekin "Kibor avliyolar va ulug' pirlar nasabnomasi" oxiridagi masnaviysida oxirgi piri Munavvaralishohning nomi zikr etilmagan hamda o'z nasabnomasini Rahmatalishoh bilan tugatgan. Bularning barchasi Safialishohning Munavvaralishoh xizmati hamda u orqali hidoyat yo'liga ergashganini ko'rmaslikka olish ekanligini anglatadi. Nihoyat Hasan Isfahoniy (Safialishoh) hijriy 1316-yil 65 yoshida vafot etadi. Shundan so'ng o'zlarini ne'matullohiya tariqatiga ergashuvchilar deb biluvchi hamda nasablarini Safialishohdan so'ng Rahmatalishoh bilan bog'lovchi safoiy birodarlar yoki safialishohiya shaxobchasi vujudaga keladi¹⁸.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ne'matullohiya tasavvuf tariqatining ildizlari tasavvufning ilk bosqichlariga borib taqalalishini yuqoridagi tariqat pirlari silsilasidan bilib olish mushkul emas. Mazkur tariqat turli davrlarda turlicha, masalan, ma'rufiya, junaydiya va boshqacha nomlanib, dastavval islom dinining sunniy mazhabiga e'tiqod qiluvchi aholisi orasida keng tarqalgan. Keyinchalik bu tariqatga ham shiallikka burilish kuzatiladi hamda shia mazhabiga e'tiqod qiluvchi aholi orasida, xususan, Eron va unga tutash bo'lgan mintaqalarda tarqaladi. Oradan ma'lum bir muddat o'tib, tariqat Hindiston hududlarida ham yoyiladi hamda tariqat peshvolarining ham Hind diyoriga ko'chib o'tishi kuzatiladi. Asta-sekin tariqat peshvolarida mazkur yo'l ilk kurtak otgan yerlarga qaytib borish ehtiyoji seziladi. Ne'matullohiya tariqati pirlari Eron hududlariga qaytganda so'ng unda yangi davr boshlanadi hamda aynan shu davrlarda tariqatda bo'linish yuz beradi. Ushbu tasavvuf tariqatiga ergashuvchilarni hozirgi kunda ham Eron Islom Respublikasi va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlarda uchratishimiz mumkin.

¹⁸ Javod Nurbaxsh. Guliston jovid. Tehron, 1994-yil. – B. 57.

REFERENCES

1. Alirizo Nurbaxsh. Ne'matullohiya tariqati maqalasi. So'fiylik jurnali 1-son. London, 1979-yil.
2. Alloma Jaloliddin. Sano devoni she'riy to'plami. Tehron.
3. Javod Nurbaxsh. Guliston jovid. Tehron, 1994-yil
4. Javod Nurbaxsh. Kirmon so'filari va ulug'lari. Yaldo Qalam nashriyoti. Tehron, 2005-yil.
5. Javod Nurbaxsh. So'fiylar jannatida. Yaldo qalam nashriyoti. Tehron, 2005-yil.
6. Javod Nurbaxsh. Tariqat ulug'lari. Yaldo qalam nashriyoti. 2004-yil.
7. Javod Nurbaxsh. Tasavvuf atamalari. Ne'matullohiya xonaqosi nashriyoti. 1993-yil.
8. Javod Nurbaxsh. Shoh Ne'matulloh Valiy hayoti va ijodi. Yaldo Qalam nashriyoti. Tehron, 2007-yil
9. Muhsin Kiyoniy. Eronda xonaqohlar tarixi. Tehron.
10. Murtazo Mutohhariy. Tasavvufdagi mashhur so'fiylar. 1-jild.